

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 180
29 08 2022 y.

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlarini prorektori
O.N. Bozorov
29 08 2022 y.

MOLIYAVIY HISOBOT-2
FANI
SILLABUSI

Billim sohasi:	400000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 – Iqtisod
Magistratura mutaxassislari:	70410101-Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Qarshi-2022

Fanning sillabusi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Jumayeva G.J. – "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası dotsenti

Taqrızchılar:

Ergasheva Z. -- Qarshi shahar "Audit-hisob markazi" MCHJ raisi.

Fayzlyeva SH.SH. -- QMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Buxgalteriya hisob va audit" kafedrasining 2022 yil 29 08 dagi 1- son yig'ilishida hamc "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil 29 08 dagi 1- se yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil 28 08 dagi 1 son yig'ilish qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

Sh.R.Turdliyev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi

A.B.Qurbonov

Kafedra mudiri:

A.T.Allkulov

**“Moliyaviy hisobot-2”
fani sillabusi**

Fan (modul) kodi 336 MACC 18.1.04	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 1	ECTS krediti 4
Fan (modul) turi Majburiy fanlar	Ta‘lim tili o‘zbek		Haftalik dars soati 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta‘lim	Jami yuklama
Moliyaviy hisobot-2 1-semestr	60	60	120

O‘qituvchi haqida ma‘lumot

Kafedra nomi	Buxgalteriya hisobi va audit		
O‘qituvchilar	F.i.sh.	Telefon nomeri	e-mail
Ma‘ruzachi	Jumayeva Gulrux Juraqulovna	+998 97 2945510	guiruh.jumayeva.68@mail.ru
Amaliy mashg‘ulot	Jumayeva Gulrux Juraqulovna	+998 97 2945510	guiruh.jumayeva.68@mail.ru
Laboratoriya mashg‘uloti	-	-	-

1. Fanning mazmuni

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda investitsion jozibadorlik sharoitida buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasining kengayib borishi, integratsiya jarayonlari chuqurlashuvi, qo‘shma korxonalar barpo etilayotganligi, investitsiyalar, ishchi kuchi va ayrim davlatlar o‘rtasida erkin harakatlanish zarurligi hisob tizimini jahon standartlariga moslashtirishni yanada kuchli taqozo etadi.

Buxgalteriya hisobini yuritishdan ko‘zlangan asosiy maqsad uning faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish va umumlashtirish asosida uning rahbariyati hamda manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar uchun zarur ma‘lumotlar to‘plamini vujudga keltirishdan iboratdir. “Moliyaviy hisobot-2” fani iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi axborotlar tashqi foydalanuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot korxonaning iqtisodiy va moliyaviy holati (xarajatini qoplay olishi)ni yaqqol ko‘rsatadi. Bugungi kunda moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim

etish bo'yicha me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular yordamida moliyaviy hisobotni tuzishni xalqaro talablarga yaqinlashtirilmogda.

Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish tartibini, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish, balansni transformatsiya qilish bosqichlarini talabalarga o'rgatish dolzarb hisoblanadi. Aynan ushbu fan iqtisodiyot yo'nalishidagi talablarga moliyaviy hisobot shakllarini tuzish va taqdim etish tartibini chuqur o'rganishiga muhim hissa qo'shadi.. Bu fanni o'rganish talabalarga o'xshash fanlarni chuqur o'rganish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi.

“Moliyaviy hisobot-2” fanining asosiy maqsadi – buxgalteriya hisobi sohasidagi magistrnlarga xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobotlarining nazariy asoslarini va tamoyillarini, moliyaviy hisobotni tuzishning hamda taqdim etishning uslubiy jihatlarini chuqur o'rganish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat..

Fanning vazifasi: ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

-iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy hisobotning mazmuni, o'rni va ahamiyati;

-moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarni korxonada faoliyatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlashdagi vazifalari;

-moliyaviy hisobotning tuzilishi va tarkibi;

-buxgalteriya balansi va uni tuzish uslubi;

-moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari va uni tuzish tartibi;

-xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning korxonada faoliyatining samaradorligini oshirishning o'rni va uni tuzish usullarini qo'llash;

-pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning korxonada moliya resurslarini boshqarishdagi ahamiyati va uni milliy va xalqaro standartlarda qo'llaniladigan usullarni va ularni amaliyotga qo'llash;

-moliyaviy hisobotlarga izoh xatini tayyorlash;

-moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim qilish tartiblarini o'rganishdan iboratdir.

II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Ushbu maqsadga erishish uchun fan magistrnlarga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha magistrnlarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Magistrant:

Moliyaviy hisobot fanining predmeti va metodi, ularning xo'jalik faoliyatini ma'lumot manbai ekanligi, O'zbekiston Respublikasida hisobotni normativ asosida tartibga solish. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari va Moliya vazirligining Nizom va ko'rsatmalari;

buxgalteriya hisobini tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar, moliyaviy hisobotni tuzish uchun hujjatlashtirish va inventarizatsiya qilish;

- buxgalteriya hisobining registrlari va shakllari;

- moliyaviy hisob va hisobotning mohiyati;

- moliyaviy hisobot elementlari;

- korxonalar hisobotining turlari, moliyaviy hisobotning mazmuni va vazifalari, moliyaviy hisobotning statistik hisobotdan farqli tomonlari;

- yillik va davriy moliyaviy hisobotning tarkibi: hisobot shakllari, hisobot moddalarining mazmuni, tushuntirish xatining tuzilish sxemasi;

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar hisobi, investitsiyalar hisobi, materiallar hisobi, tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish, pul mablag'lari va hisob kitoblar hisobi, mehnat va ish haqini hisobga olish, majburiyatlar hisobi, xususiy kapital hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, hisobotlarni tuzish va taqdim etish haqida tasavvurga ega bo'lishi;

Magistrant:

- Buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha hisob siyosatini;

- moliyaviy hisob va hisobotning mohiyatini;

- moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish qoidalarini;

- pul mablag'lari hisobi va hisobotini;

- investitsiyalar hisobi va hisobotini;

- asosiy vositalar hisobi va hisobotini;

- nomoddiy aktivlar hisobi va hisobotini;

- mehnat va ish haqi hisobi va hisobotini;

- tovar-moddiy zaxiralar harakatini hisobga olish;

- mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi

hisobini;

- tayyor mahsulotlar hisobi va hisobotini;

- kapitallar xarakati va moliyaviy natijalar hisobi va hisobotni;

- soliqlar va majburiy to'lovlar hisobga olish va hisobot taqdim qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

Magistrant:

- 1-sonli shakl "Buxgalteriya balansini" va muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobotini tuzish va taqdim etish;

- 2-sonli shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni tuzish va taqdim etish;

- 4-sonli shakl "Pul oqimlari to'g'risida hisobot"ni tuzish va taqdim etish;

- 5-sonli shakl "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"ni tuzish va taqdim etish;

- konsolidatsiyalashgan (umumlashtirilgan) buxgalteriya hisobotini tuzish va taqdim etish;

- milliy standartlar asosida tuzilgan buxgalteriya balansini xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish;

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos ravishda hisobotlarni tuzish va taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

III. Ta'lim texnologiyalari va uslublari

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;

- mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'qitishda interfaol, kommunikativ, perseptiv yondashuvlardan maksimal darajada foydalanish, o'quv adabiyotlaridan tashqari autentik materiallar: audio, video, jurnallar, internet manbalaridan o'zlashtirilgan bilimlar majmuasini amaliyotda kuzatilayotgan dalil va hodisalarga bog'lay olish, olingan natijalarni baholash, tahlil qilish orqali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va kompetensiyalarni innovatsion tafakkur layoqati negizida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash jarayonida:

- mezonni tanlash;
- o'quv maqsadlarini toifalash;
- o'quv materiallarini modullashtirish;
- ularni o'rganish, tahlil qilish va qayta ishlash;
- o'rganish natijalarini aniqlash kabi omillarga qaratish orqali ta'lim oluvchida nazariy bilimlar puxta egallanishi hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish talab etiladi.

IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soat
I-semestr			
1.	1-Mavzu. «Moliyaviy hisobot-2» fanining predmeti va moliyaviy hisobotining umumiy tavsifi	<p>1.Moliyaviy hisobot-2 fanining predmeti va metodi, ularning xo'jalik faoliyatini ma'lumot manbai ekanligi, O'zbekiston Respublikasida hisobotni normativ asosida tartibga solish.</p> <p>2.Buxgalteriya hisobining milliy standartlarining o'rimi.</p> <p>3.Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda buxgalteriya hisob va moliyaviy hisobotini isloh qilish bosqichlari.</p> <p>4.Moliyaviy hisobotning mazmuni va vazifalari. Moliyaviy hisobotning turlari. moliyaviy hisobotning statistik va soliq hisobotidan farqi.</p> <p>5.Xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisobotlarning asosiy obyektlari va subyektlari.</p> <p>6.Hisobot tuzish va axborotni yig'ishning asosiy ucul hamda uslubiyatlari.</p> <p>7.Bozor infrastrukturasi mavjud davlatlarda buxgalteriya ma'lumotlaridan foydalanuvchilar.</p> <p>8.Hisobotdan foydalanuvchilar va manfaatlari. Axborotdan ichki va tashqi foydalanuvchilar.</p>	4
2.	2-mavzu. Buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha hisob siyosati	<p>1.Hisob siyosati va moliyaviy hisobotning o'zaro bog'liqligi.</p> <p>2.Moliyaviy hisobot shakllaridagi ilovalarning tarkibi: moliyaviy hisobning konseptual asoslari, pul mablag'lari va debitorlik qarzlari hisobi, moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish qoidalari, 1-sonli shakl "Buxgalteriya balansi" va muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobotini tuzish va taqdim etish, 2-sonli shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni tuzish va taqdim etish, 4-sonli shakl "Pul oqimlari to'g'risida hisobot"ni tuzish va taqdim etish, 5-sonli shakl "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"ni tuzish va taqdim etish, konsolidatsiyalashgan (umumlashtirilgan) buxgalteriya hisobotini tuzish va taqdim etish, Tushuntirish xatining mazmuni va uning foydalanuvchilar uchun ahamiyati.</p> <p>3.Statistik va moliyaviy axborot oqimi.</p>	4

		<p>4. Statistik va moliyaviy axborotlarning shakllanishida asosiy yo'nalishlar.</p> <p>4. Moliyaviy va statistik axborotni tuzishlarini.</p> <p>5. Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'laydigan soliqlar to'g'risida axborot.</p>	
3	3-mavzu. Moliyaviy hisobot tuzishning asosiy tamoyillari	<p>1. Moliyaviy hisobning konseptual asoslari.</p> <p>2. Hisobot tuzishning asosiy tamoyillarining mazmun va mohiyati.</p> <p>3. Hisobotga qo'yilgan talablar: o'rinlilik, tushunarlilik, muvofiqlik, ishonchlilik.</p> <p>4. Hisobot elementlari: aktiv, passiv, daromad va xarajatlar, foyda, zararlar.</p> <p>5. Hisobotga ma'lumotlarni kiritish tamoyillarining mohiyati.</p> <p>6. Hisobotga kiritiladigan axborotni hisobga olish tamoyillari: ikki yoqlama yozuv, iqtisodiy birlik, ketma-ketlik, pulli baho, hisob-kitob usuli.</p> <p>7. Cheklaydigan tamoyillar: xarajat va daromadlarning o'zaro muvofiqligi, ehtiyotkorlik va konfidensiallik.</p>	4
4	4-mavzu. "Buxgalteriya balansi"ning tavsifi va uni tuzish	<p>1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya balansining mohiyati va vazifalari.</p> <p>2. Buxgalteriya balansining turlari va shakllari: aylanma va shaxmatli balans: balans - brutto va balans - netto, ularning farqlari; dastlabki, hisobot (davriy, yakuniy) tugatish, yig'ma, yig'ma-umumlashtirilgan (konsolidatsilashgan) balanslar, ularning farqlari va tuzish xususiyatlari.</p> <p>3. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya balansini tuzishning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>4. Buxgalteriya balansini tuzishda dastlabki ma'lumotlar manbai.</p> <p>5. Balansning uzoq muddatli aktivlar bo'limi.</p> <p>6. Balansning aylanma aktivlari bo'limi.</p> <p>7. Joriy va uzoq muddatli aylanma mablag'larining harakati.</p> <p>8. Balans passivi xususiy kapitalining tarkibi va uning shakllanishi.</p> <p>9. Balansning majburiyatlar bo'limi.</p> <p>10. Joriy va uzoq muddatli majburiyatlar.</p> <p>11. Majburiyatlarni qoplash tartibi.</p> <p>12. Buxgalteriya balansini tuzish texnikasi.</p> <p>13. Bosh daftar va boshqa hisob registrlaridagi</p>	4

		<p>balansning aloxida moddalari bo'yicha ma'lumotlarni olish tartibi.</p> <p>14. Buxgalteriya balanslari ma'lumotlarini qalbakilashtirish va uning oqibatlari.</p> <p>15. Xo'jalik subyektini moliyaviy holatiga baho berishda buxgalteriya balansining ma'lumotlaridan foydalanishi chuqur bilim oladilar.</p>	
2-Modul. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini belgilovchi ma'lumotlar va ularning manbalari.			
5.	5-mavzu. "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ning tasnifi va uni Tuzish	<p>1. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning mazmuni va mohiyati.</p> <p>2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalarning shakllanish bosqichlari.</p> <p>3. «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl)ning ko'rsatkichlari: tushum, daromad, foyda, zarar, xarajatlar, sotilgan mahsulot tannarxi va boshqalarning mazmuni.</p> <p>4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni to'ldirishda dastlabki ma'lumotlar manbai.</p> <p>5. Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum.</p> <p>6. Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi.</p> <p>7. Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi.</p> <p>8. Davr xarajatlari.</p> <p>9. Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari.</p> <p>10. Asosiy faoliyatning foydasi.</p> <p>11. Moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari.</p> <p>12. Umumxo'jalik faoliyatining foyda (zarar)si.</p> <p>13. Favqulodda foyda va zarar.</p> <p>14. Hisobot davrining sof foydasi.</p> <p>15. «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl)ning soliq va turli deklaratsiyalar talab etadigan organlariga taqdim etiladigan hujjatlar bilan o'zaro bog'liqligi.</p>	4
6.	6-mavzu. "Pul oqimlari to'g'risida hisobot" ning tasnifi va uni tuzish	<p>1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlari to'g'risidagi hisobotining mazmuni va mohiyati.</p> <p>2. Hisobot ko'rsatkichlari.</p> <p>3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishning</p>	2

		<p>usullari.</p> <p>4. Operatsion faoliyat bo'yicha olingan va chiqim qilingan mablag'lari harakati.</p> <p>5. Investitsion faoliyat bo'yicha olingan va chiqim qilingan mablag'lari harakati.</p> <p>6. Moliyaviy faoliyat bo'yicha olingan va chiqim qilingan mablag'lari harakati.</p> <p>7. Soliqqa to'lovlar bo'yicha pul mablag'lari.</p> <p>8. Yil boshiga pul mablag'lari.</p> <p>9. Yil oxiriga pul mablag'lari.</p> <p>10. "Pul oqimlari to'g'risida hisobot" ning balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot bilan o'zaro bog'liqligi.</p> <p>11. Xalqaro amaliyotda hisobotni keng qo'llashga ta'sir qiluvchi omillar.</p> <p>12. Xalqaro amaliyotdagi hisobot shakli bilan farqli jihatlari.</p>	
7.	7-mavzu. "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" ning tasnifi va uni tuzish	<p>1. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning mazmuni va tarkibi.</p> <p>2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xususiy kapitalini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>3. YAKka mulkchilikka asoslangan xususiy kapital. SHERikchilik korxonalarida xususiy kapital.</p> <p>4. Xissadorlik jamiyatlaridagi xususiy kapital.</p> <p>5. Aksiyalar chiqarish bilan bog'liq xo'jalik muomalalari.</p> <p>6. Dividendlar hisobi.</p> <p>7. Qayta sotib olingan xususiy aksiyalar.</p> <p>8. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni to'ldirish tartibi va unga qo'yilgan talablar.</p> <p>9. Qo'shilgan kapitalning harakati</p> <p>10. Zahira kapitali va uni shakllantirish.</p> <p>11. Taqsimlanmagan foyda va uning ishlatilishi.</p> <p>12. Sotib olingan xususiy aksiyalari harakati.</p> <p>13. Maqsadli tushumlar va boshqa mablag'lar harakati.</p> <p>14. Yil boshiga xususiy kapitalning holati.</p> <p>15. Yil oxiriga xususiy kapitalning o'zgarishi.</p>	2
8.	8-mavzu. Debitorlik va kreditorlik qarzlari holati to'g'risidagi ma'lumotnomalar	<p>1. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risida ma'lumotlarning mazmuni hamda mohiyati.</p> <p>2. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining muddatlari.</p>	2

		<p>3. Debitorlik majburiyatga yo'l qo'yganligi uchun mansabdor shaxslarning moddiy javobgarligi. Respublika ichida va tashqarisida vujudga kelgan majburiyatlar.</p> <p>4. Moliyaviy-iqtisodiy holat to'g'risidagi ma'lumot.</p> <p>5. Hisobot davri boshiga va oxiriga debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risida ma'lumot.</p>	
9.	<p>9-mavzu. Moliyaviy hisobotiga ilova qilinuvchi tushuntirish xatlarining xususiyatlari</p>	<p>1. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar, hisob-kitoblar va ilovalarning mazmuni.</p> <p>2. Subyektning mulkiy va moliyaviy holatiga real baho berish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni aks ettirish.</p> <p>3. Subyektning tarkibiy tuzilishi bo'yicha umumiy ma'lumot.</p> <p>4. Mahsulot (ish, xizmat) sotish hajmi to'g'risida ma'lumot.</p> <p>5. Ishlab chiqarish faoliyati to'g'risida ma'lumot.</p> <p>6. Davr xarajatlarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumot.</p> <p>7. Subyektning majburiyatlari yuzasidan to'lovlarning ta'minlanganligi haqida ma'lumot.</p>	2
10	<p>10-mavzu. Konsolidatsiyalashtirilgan (umumlashtirilgan) buxgalteriya hisobotini tuzish tartibi</p>	<p>1. Konsolidatsiyalashtirilgan (umumlashtirilgan) buxgalteriya hisoboti va uning yig'ma hisobotlardan umumiy farqi.</p> <p>2. Konsolidatsiyalashgan hisobot tuzishning asosiy tamoyillari va qoidalari.</p> <p>3. Konsolidatsiyalashgan hisobot tuzishning obyektlari, subyektlari va uslubiy jihatlari.</p> <p>4. SHo'ba korxonalarida konsolidatsiyalashgan hisobot tuzishning xususiyatlari.</p> <p>5. Xalqaro amaliyotdagi umumlashgan hisobotni tuzish usullari, tajribasi va uni O'zbekiston Respublikasidagi umumlashgan hisobot tuzish bilan farqli jihatlari.</p>	2
Jami			30

Amaliy mashg'ulotlar
1-semestr

№	Mavzular	
1.	1-Mavzu. «Moliyaviy hisobot-2» fanining predmeti va moliyaviy hisobotining umumiy tavsifi	4
2.	2-mavzu. Buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha hisob siyosati	4
3.	3-mavzu. Moliyaviy hisobot tuzishning asosiy tamoyillari	4
4.	4-mavzu. "Buxgalteriya balansi"ning tavsifi va uni tuzish	4
2-Modul. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini belgilovchi ma'lumotlar va ularning manbalari.		
5.	5-mavzu. "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ning tasnifi va uni tuzish	4
6.	6-mavzu. "Pul oqimlari to'g'risida hisobot" ning tasnifi va uni tuzish	2
7.	7-mavzu. "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" ning tasnifi va uni tuzish	2
8.	8-mavzu. Debitorlik va kreditorlik qarzlari holati to'g'risidagi ma'lumotnomalar	2
9.	9-mavzu. Moliyaviy hisobotiga ilova qilinuvchi tushuntirish xatlarining xususiyatlari	2
10.	10-mavzu. Konsolidatsiyalashtirilgan (umumlashtirilgan) buxgalteriya hisobotini tuzish tartibi	2
Jami		30

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor- o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limning shakl va mazmuni

"Moliyaviy hisobot-2" fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

"Moliyaviy hisobot-2" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda internet saytlaridan foydalanib, konspektlar, referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini

bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Talabalarga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- komp'yuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va konspektlar tayyorlash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to'plamlarni chuqur o'rganish;
- interaktiv va yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonida faol qatnashish;
- masofaviy (distansion) ta'limni tashkil etishda qatnashish;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish.

“Moliyaviy hisobot-2” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

VI. Mustaqil ta'lim

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Moliyaviy hisobot-2 fanining predmeti va metodi.
2. Hisob siyosati va buxgalteriya hisobotining o'zaro bog'liqligi.
3. Moliyaviy hisobot xo'jalik faoliyatini ma'lumot manbai.
4. Moliyaviy hisobot shakllarining tarkibi va o'zaro bog'liqligi.
5. Yillik va davriy moliyaviy hisobotning tarkibi: hisobot shakllari, hisobot moddalarining mazmuni, tushuntirish xatining tuzilish sxemasi.
6. Moliyaviy hisobotning mazmuni va vazifalari.
7. Hisobot ma'lumotlarini ichki va tashqi foydalanuvchilar
8. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot va uning ko'rsatkichlari.
9. Korxonalar hisobotining turlari.
10. Xalqaro amaliyotda hisobotni keng qo'llashga ta'sir qiluvchi omillar.
11. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishning ikki usuli..
12. Moliyaviy hisobotni statistik hisobotdan farqi.

13. Hisobot ko'rsatkichlari.
 14. Buxgalteriya balansining mohiyati va vazifalari.
 15. O'zbekistonda Respublikasi va xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklining hususiyatlari.
 16. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tarkibiy tuzilishi.
 17. Balans - korxonada mol-mulkini ma'lum davrdagi pul o'lchovi.
 18. Hisob siyosati va uning mohiyati.
 19. Hisobotni tekror moliyaviy rejalashtirish va korxonaning pul oqimlari xarakatini nazorat qilish, balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarning o'zaro bog'liqligi.
 20. Balansda barcha mulkiy munosabatlarning aks ettirilishi.
 21. Yillik va davriy moliyaviy hisobotning tarkibi.
 22. Respublikada amal qilinayotgan «Pul oqimlari xarakati to'g'risidagi hisobot» (4-shakl)ning tuzilishining xalqaro amaliyotdagi hisobot shaklidan farqi.
 23. O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansining hususiyatlari.
 24. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning mazmuni va tarkibi.
 25. Konsolidatsiyalashgan hisobot va uning yig'ma hisobotlardan farqi.
 26. Yakkala mulkchilikka asoslangan xususiy kapital.
 27. Buxgalteriya balansining pul oqimlari xarakati to'g'risidagi hisobot bilan o'zaro bog'liqligi.
 28. 2-sonli «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» shaklining ko'rsatkichlari, ularning tashkil topish tartibi va hisobot shaklida ma'lumotlarni hisob registrlaridan aks ettirilishi.
 29. Buxgalteriya balansining turlari va shakllari.
 30. Pul tushumi va to'lovlari toifalari.
 31. Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot.
 32. Daromad (foyda)ning tashkil topishi, taqsimlanishi, ularni hisobotni aks ettirilishi va soliqlar hisoblashda ishtirok etishi.
 33. Hisob siyosatining mazmun – mohiyati.
- Fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzularida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VII. Fan bo'yicha kurs ishi

Fan bo'yicha kurs ishi o'quv rejasida rejalashtirilmagan.

VIII. Talabalar bilimni baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

-talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

-talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

-talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

-talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Gadoev E. va boshq. Yillik hisobot-2009. T.: NORMA, 2016. 597 b.
2. Egamberdieva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.
3. Karimov A., Muqumov Z, Tulaev M., Kurbanbaev J., Raxmonov SH. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.
4. Kuljonov O., Xusinov I., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –237 b.

5. Karimov A., Kurbanbaev J., Jumanazarov S. Buxgalleriya hisobi Darslik
T.: Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
6. Karimov A., Kurbanbaev J., Jumanazarov S., Xalilov SH. Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. - 400 b.
7. Kuljonov O., Ortiqov X., Yulgay L., Tuxsanov X., M.Xayitboev Moliyaviy hisob O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -246 b.
8. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G'. Moliyaviy va boshqaruv hisobi O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -194 b.
9. Norbekov D., To'raev A., Raxmonov SH. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -350 b.
10. Norbekov D., Maxmudov A., Muxammedova D. Buxgalleriya hisobi. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -236 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

11. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 114947-sonli Farmoni.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 104 b.
14. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
15. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.
16. Pardaev A., Pardaev B. "Boshqaruv hisobi" T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014 yil 251- b.
17. Xasanov B., G'aniev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -279 b.

Internet saytlari:

18. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
19. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
20. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasining sayti.
21. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari sayti.
22. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining sayti.